

YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH HAR BIR MUALLIM BURCHIDIR

Xoldarova Matluba Maxmudovna

Farg'ona viloyati, Buvayda tumani, 26-maktab o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7445066>

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarga vatan haqida tushuncha berish va ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tarixiy misollar bilan yoritilgan.

Kalit so'zlar: vatanparvarlik, yoshlar tarbiyasi, intellektual salohiyat, o'zbek tili tushunchasi, fidokorlik.

Bugungi kunda Mustaqil va rivojlanayotgan O'zbekistonimizda yoshlarni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, shu bilan birga yoshlarimizda vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, yoshlarning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishi, ularni har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratilgan. Uzoqni ko'zlagan holda qabul qilingan kadrlar tayyorlash, maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy dasturlari, yoshlarga oid davlat siyosati, o'g'il-qizlarimiz uchun turli yo'nalishlar bo'yicha ta'sis etilgan davlat mukofotlari, bunyod etilgan ta'lim maskanlari, bolalar sportini rivojlantirish borasidagi ishlar [1]. Bularning hammasi barkamol avlodni, demakki, ertangi kunimizning munosib davomchilarini, yurt kelajagi jonkuyarlarini tarbiyalashga qaratilgan tadbirlar sirasiga kiradi. Savol tug'iladi vatanparvarlik o'zi nima? Vatanparvarlik va shunga o'xshash tug'ular qay tarzda shakllanadi?

Vatanparvarlik – bu Vatan, xalq, oila, qavmu qarindosh oldidagi mas'uliyat, millat manfaati bilan yashash, o'z xalqining tarixini yaxshi bilish va undan g'ururlanish, buyuk ajdodlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy merosni ko'z qorachig'idek asrab, kelgusi avlodlarga yetkazish, ajdodlar urf-odat, rasm-rusum va udumlarini, merosini o'rganib, uning qadriyatga aylangan qismini davom ettirish, davlatimiz kelajagi, istiqlolni barqarorligi, kelajakning buyukligini chin dildan his etish, shunday kelajakni barpo etishga astoydil ko'maklashish, jonajon Vatanning ertangi kuni, istiqboli, taraqqiyoti, millat obro'siga hissa qo'shish, foyda keltirish, koriga yarash, fidoyilik, halollik bilan mehnat qilish, xalqning shon-shuhrati va manfaatini o'ylash, insonparvar, xalqparvar bo'lish va shunga o'xshash yuzlab fazilatlar kabi xususiyatlarni anglatadi.

Tarixini bilmagan inson kelajagni ham qura olmaydi. Mustaqillikka erishishimizdan avval o'zbek xalqi o'z tarixini to'liq bilmas, ajdodlari kimlar bo'lishgan, o'zbek xalqining tarixi deyarli hechkinga malum emas edi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov

tomonlaridan xalqimiz ko'p yil kutgan, orzu qilgan mustaqillikka erishdi. Bu mustaqillik bizga ko'p narsani qaytarib berdi, ming yillik tarixga ega qadamjolarimiz qayta rekonstruksiya qilindi, ulug' ajdodlarimiz nomi qayta tiklandi. Yaqin kunlarda xalqaro jurnallarda yurtimiz dunyo olimlari nazariga tushgani sababli O'zbekistonimiz haqida xalqaro jurnallar chop ettildi. Bu esa biz uchun juda katta va esda qolarli yutuqlardan biridir.

Tarixga nazar soladigan bo'lsak, bundan 800 yil muqaddam Jaloliddindek pahlavon o'g'ilni dunyoga keltirgan Oychechak ona farzandlari qoniga ko'krak suti bilan birga yurtining nafasini, mehr-muhabbatini, ozodlikka bo'lgan buyuk sog'inchini ham singdira oldi. U o'z allalari bilan o'g'il-qizini Vatanga fidokorlik, xalqqa muhabbat ruhida tarbiyaladi. Jaloliddinning fojiaviy tugallangan umri tarix sahifalarida jasoratning mislsiz timsoli sifatida muhrlanib qoldi. U forslardan Isfandiyor Xazar o'lkasida asirga tushgan singlisini qutqarish uchun borib, o'zi ham asirga tushdi. Zindonda undan "Nima xohlaysan?" deb so'raldi. U esa "Vatanimning bir siqim tuprog'i va bir qultum suvi", dedi. Bundan ko'rinib turibdiki vatanparvarlik tuyg'usi bizga ota bobolarimizdan meros bo'lib qolgan. Bu esa bizning tariximiz ham jasoratli, xalqparvar, o'ziga ishongan mard o'glonlarni tarbiyalaganini, bu ajdodlar esa bizga haqli ravishda so'zsiz o'rnak bo'la olishini anglatib turibdi [2].

Prezidentimizning "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" nomli asarlarida vatanga bo'lgan muhabbat, hurmat va uni ardoqlash haqidagi manaviy tushunchalar juda keng va mukammal tarzda ko'rsatilgan. Har tomonlama rivojlangan, xuquqiy va madaniy ong rivojlangan davlatni qurishimizda har bir fuqoro o'rni o'z ahamiyatiga ega [3].

Zero, qo'nim topgan joyimiz, Vatan deb bilgan shu yurt uchun qanchadan-qancha insonlar joni fido bo'ldi. Vatan – yagonadir, Vatan – bittadir, degan g'oyani shu mo'tabar zaminimizda yashayotgan har qaysi inson, unib-o'sib kelayotgan avlodlarning ongi va tafakkuriga singdirish, ularning hayotiy ehtiyojiga aylantirishni eng ustuvor maqsadlari deb bilmoqlari kerak. Zotan, jannatmonand ulug' ona Vatanimizni sevmok, ravnaqi uchun fidokorlik qilmoq, uning tinchligi himoyasida bo'lish va asrab-avaylash har birimizning muqaddas burchimizdir!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <http://mv-vatanparvar.uz/uz/news?id=7872>;
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining "Yoshlarni Harbiy-Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash " kontsepsiyasi. 140-son 23.02.2018;
3. "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz".

4. /Sh.M.Mirziyoev. — Toshkent: : „O‘zbekiston“, 2017. — 488 b.^[33]